

“Uzbekistan Airways” AJ  
Yagona aksiyadorining  
2019-yil 18-oktyabrdagi 4-son qarori bilan  
“TASDIQLANGAN”

**“UZBEKISTAN AIRWAYS” AKSIYADORLIK JAMIYATI MANFAATLARI  
TO‘QNASHUVI HOLATIDA HARAKATLAR TARTIBI TO‘G‘RISIDA  
NIZOM**

## **MUNDARIJA**

- I. UMUMIY QOIDALAR
- II. NIZOM TA'SIRI OSTIGA TUSHADIGAN SHAXSLAR DOIRASI
- III. MANFAATLAR TO'QNASHUVLARI TURLARI
- IV. JAMIYATDAGI MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISHNING ASOSIY  
TARTIB-TAOMILLARI
- V. MANFAATLAR TO'QNASHUVINING SABABLARI (SHARTLARI)
- VI. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI OLDINI OLISH
- VII. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI TARTIBGA SOLISH
- VIII. MA'LUMOTLARNI OSHKOR QILISH
- IX. YAKUNIY QOIDALAR

## I. Umumiy qoidalar

1. “Uzbekistan Airways” AJ manfaatlari to‘qnashuvi bo‘yicha harakatlar tartibi to‘g‘risidagi mazkur Nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda – Qonun), boshqa qonunchilik-normativ hujjatlariga, Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalariga (2015-yil 31-dekabrdagi 9-sonli bayonnomaga) va “Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Nizom manfaatlar to‘qnashuvining turlarini, nizolarni boshqarishning asosiy tamoyillarini, jamiyatda yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va hal qilish choralarini, shuningdek boshqaruv organlari a’zolari, mansabdor shaxslar va jamiyat xodimlarining majburiyatlarini va javobgarliklarini belgilaydi.

3. Ushbu Nizom yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni o‘z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish va haqiqiy nizolarni hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

## II. Nizom ta’siri ostiga tushadigan shaxslar doirasi

4. Ushbu Nizom egallab turgan lavozimi darajasidan qat’i nazar, Jamiyatning boshqaruv organlariga, Jamiyatning mansabdor shaxslariga va barcha xodimlariga nisbatan qo‘llaniladi.

5. Ushbu Nizomga rioya qilish talablari, shuningdek, tegishli majburiyatlar fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida Jamiyat bilan hamkorlik qiladigan jismoniy shaxslarga nisbatan, ular bilan tuzilgan shartnomalarda, ichki hujjatlarda belgilangan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonundan kelib chiqqan hollarda qo‘llaniladi.

## III. Manfaatlar to‘qnashuvlari turlari.

6. Jamiyat faoliyatini amalga oshirishda Jamiyatning mulkiy yoki boshqa manfaatlari (uning boshqaruv organlari, mansabdor shaxslar va xodimlar) va mijozlar, iste’molchilar, yetkazib beruvchilar, kreditorlar, kompaniyaning biznes sheriklari va boshqa manfaatdor tomonlarning mulkiy yoki boshqa manfaatlari (keyingi o‘rinlarda - kontragentlar) o‘rtasidagi ziddiyat tufayli manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin. Jamiyat boshqaruv organlari va/yoki uning mansabdor shaxslari va xodimlarining harakati (harakatsizligi) natijasida Jamiyat kontragentlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzish holatlari (keyingi o‘rinlarda **manfaatlar to‘qnashuvi**)ga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Jamiyat va/yoki uning xodimi o‘rtasida kontragent ishtirokida yuzaga kelgan Jamiyat faoliyatini amalga oshirishdagi har qanday kelishmovchilik yoki nizo, yoki kontragentlar o‘rtasidagi kelishmovchilik yoki nizo, agar bu Jamiyat manfaatlariga ta’sir qilsa, mohiyatan manfaatlar to‘qnashuvining bir turi hisoblanadi, chunki u Jamiyat ichidagi munosabatlarga ta’sir qiladi yoki ta’sir qilishi mumkin.

7. Bundan tashqari, manfaatlar to‘qnashuvi (keyingi o‘rinlarda - **korporativ nizo**) Jamiyat aksiyadorlarining, Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari va aksiyador (aksiyadorlar) manfaatlarini, Jamiyatning boshqaruv organlari o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin.

Korporativ nizo deganda, Jamiyat aksiyadorlari, aksiyadorlar va jamiyat boshqaruvi organlari, investorlar (potentsial aksiyadorlar) va Jamiyat o‘rtasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va nizolar tushunilishi zarur, ular quyidagi oqibatlardan biriga olib keladi yoki olib kelishi mumkin:

- a) amaldagi qonunchilik, Jamiyatning Ustavi yoki ichki hujjatlari normalari, aksiyador yoki aksiyadorlar guruhining huquqlari buzilishi;
- b) Jamiatga, uning boshqaruv organlari yoki u qabul qiladigan qarorlarning mohiyatiga nisbatan da'volar;
- d) amaldagi boshqaruv organlarining vakolatlari muddatidan oldin tugatilishi;
- e) aksiyadorlar tarkibidagi jiddiy o'zgarishlar.

Aksiyadorlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, agar bu Jamiat manfaatlariga ta'sir qilsa, korporativ nizoning bir turini ham anglatadi.

**8.** Ushbu Nizomda manfaatlar to'qnashuvining quyidagi holatlari ko'rib chiqiladi:

- a) **majoritar aksiyadorlar** (aksiyalarning katta paketlariga ega bo'lgan aksiyadorlar) **va minoritar aksiyadorlar** (oz miqdordagi aksiyalarga ega bo'lgan aksiyadorlar) o'rtasida;
- b) **Jamiat** (Jamiyatning boshqaruv organlari) **va uning aksiyadori (aksiyadorlar)** o'rtasida;
- d) **Jamiat** (Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari, Jamiatning mansabdor shaxslari va xodimlari) **va Jamiatning kontragentlari o'rtasida**;
- e) Xizmat vazifalarini bajarishda **Jamiat va mansabdor shaxslar, jamiat xodimlari o'rtasida**.

#### **IV. Jamiatdagi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish asosiy tamoyillari**

**9.** Jamiatdagi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish quyidagi tartib-taomillarga asoslanadi:

- a) haqiqiy va potentsial manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyati;
- b) har bir manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda va uni bartaraf qilishda Jamiat uchun obro'e'tibor xavflarini individual ko'rib chiqish va baholash;
- d) manfaatlar to'qnashuvi va uni bartaraf qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish jarayonining qat'iy maxfiyligi;
- e) manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilishda Jamiat va uning xodimlarining, boshqaruv va nazorat organlarining manfaatlari muvozanatiga rioya qilish;
- f) Jamiat xodimi tomonidan o'z vaqtida ochiqlangan va Jamiat tomonidan bartaraf etilgan (oldi olingan) manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabar tufayli shaxsni ta'qiblardan himoya qilish.

#### **V. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining sabablari (sharoitlari)**

**10.** Agar Jamiat xodimi shaxsiy yoki boshqa manfaatlarga, tashqaridan harakatlarga o'z qarori va Jamiat nomidan harakatlarining xolisligiga ta'sir o'tkazishga, har qanday bitimlarda Jamiatga qarshi raqobatlashishga yo'l qo'ysa, o'z xizmat vazifalarini bajarish samaradorligini pasaytirska, Jamiat tomonidan amalga oshiriladigan bitimlar xavfini oshirsa, Jamiatning moliyaviy holatiga yoki kasbiy obro'siga putur yetkazsa, manfaatlar to'qnashuvi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Korporativ nizo aksiyadorlar va investorlarning Jamiyatga bo‘lgan ishonchini susaytirishi, Jamiyat tomonidan rivojlanishi uchun kapital jalb qilinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, Jamiyatning korporativ obro‘siga putur yetkazishi, bankrotlikka yoki Jamiyat inqiroziga olib kelishi mumkin.

**11. *Jamiyatning majoritar va minoritar aksiyadorlari o‘rtasida quyidagilar natijasida korporativ nizolar yuzaga kelishi mumkin:***

- a) Jamiyat tomonidan barcha aksiyadorlarning teng huquqlarini ta’minlash bo‘yicha qonun hujjatlari, normativ hujjatlар va Jamiyatning ichki hujjatlari talablariga rioya etilmasligi;
- b) minoritar aksiyadorlarning Jamiyat faoliyatiga va aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga salmoqli ta’sir ko‘rsatishga qodir emasligi.

**12. *Jamiyat (uning boshqaruv organlari) va aksiyadorlar o‘rtasida quyidagilar natijasida korporativ nizolar yuzaga kelishi mumkin:***

- a) Jamiyat tomonidan qonun hujjatlari, normativ hujjatlар, Jamiyat Ustavi va ichki hujjatlari talablariga rioya etilmasligi;
- b) kompaniyaning vakolatli boshqaruv organlari bilan oldindan kelishmasdan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish;
- c) Jamiyat boshqaruv organlari tomonidan Jamiyatning moliyaviy ahvoli yomonlashishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan qarorlar qabul qilish;
- d) amaldagi qonunchilikka muvofiq oshkor etilmagan ma'lumotlar yoki Jamiyatning boshqaruv organlariga kiruvchi shaxslar tomonidan boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlarida egallab turgan lavozimlari, boshqa xo‘jalik jamiyatlarining ulushlari (aksiyalari)ga egalik qilish to‘g‘risida to‘liq bo‘lmagan ma'lumotlar taqdim etilishi.

**13. *Jamiyat* (uning boshqaruv organlari va nazorat organlari, mansabdor shaxslar va xodimlar) va Jamiyat **kontragentlari** o‘rtasida quyidagilar natijasida **manfaatlar to‘qnashuvi** yuzaga kelishi mumkin:**

- a) Jamiyat tomonidan qonun hujjatlari, normativ hujjatlар, Ustav va ichki, shu jumladan vakolatlarni chegaralash bo‘yicha hujjatlari talablariga rioya etilmasligi;
- b) ishbilarmonlik aloqalari normalariga va kasbiy etika tamoyillariga rioya qilmaslik;
- c) shartnomalarini Jamiyat tomonidan ham, kontragentlar tomonidan ham bajarmaslik;
- d) o‘z vazifalarini bajarmaslik;
- e) Jamiyatning aynan bir xodimi tomonidan buxgalteriya hisobvaraqlari, buxgalteriya hisobidagi bitimlarni aks ettirish, ularni nazorat qilish, shartnomalarini tuzishda taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va to‘liqligini baholash va kontragentning moliyaviy holatini keyingi monitoring qilish bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladigan bitimlar tuzish, dastlabki buxgalteriya hujjatlarini rasmiylashtirish (imzolash) funksiyalarini birlashtirish;
- f) Jamiyatning aynan bir xodimi tomonidan pul mablag‘larini o‘tkazishga (berishga) ruxsat berish va ularni haqiqiy o‘tkazishga (berishga) ruxsat berish funksiyalarini birlashtirish;
- g) Jamiyatning aynan bir xodimi tomonidan Jamiyatning kontragentlari va kompaniyaning o‘z moliyaviy va xo‘jalik faoliyatini aks ettiruvchi hisobvaraqlarning operatsiyalarini aks ettiruvchi hisobvaraqlarni yuritish funksiyalarini birlashtirish;
- h) Jamiyatning aynan bir xodimi tomonidan Jamiyatning kontragentlari va kompaniyaning o‘z moliyaviy va iqtisodiy faoliyatini aks ettiruvchi hisobvaraqlarning operatsiyalarini aks ettiruvchi hisobvaraqlarni yuritish funksiyalarini birlashtirish;

- l) Jamiyatning aynan bir xodimi tomonidan kontragent nomidan va ko‘rsatmasi bilan, kompaniya mablag‘lari hisobidan bitimlar tuzish;
- m) Jamiyat va uning kontragentlari manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish tamoyiliga rioya qilmaslik, shaxsiy maqsadlarda xizmat mavqeini suiiste’mol qilish;
- n) ishbilarmonlik aloqalari normalariga va kasbiy etika tamoyillariga rioya qilmaslik;
- o) bitimlar tuzishda Jamiyatning ichki limitlariga rioya qilmaslik;
- p) o‘z tijorat faoliyatini yuritish;
- q) shaxsiy manfaatlari tufayli Jamiyat manfaatlariga zarar yetkazadigan boshqa kompaniyalarga biznes imkoniyatlarini taqdim etish.
- r) Jamiyatning aynan bir xodimi tomonidan buxgalteriya hisobvaraqlari, buxgalteriya hisobidagi bitimlarni aks ettirish, ularni nazorat qilish, shartnomalar tuzishda taqdim etilgan hujjatlarning ishonchligi va to‘liqligini baholash va kontragentning moliyaviy holatini keyingi monitoring qilish bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladigan bitimlar tuzish, dastlabki buxgalteriya hujjatlarini rasmiylashtirish (imzolash) funksiyalarini birlashtirish;
- s) Jamiyatning aynan bir xodimi tomonidan pul mablag‘larini o‘tkazishga (berishga) ruxsat berish va ularni haqiqiy o‘tkazishga (berishga) ruxsat berish funksiyalarini birlashtirish;
- t) Jamiyatning aynan bir xodimi tomonidan Jamiyat kontragentlari va kompaniyaning o‘z moliyaviy va xo‘jalik faoliyatini aks ettiruvchi hisobvaraqlarni va Jamiyat kontragentlarining operatsiyalarini aks ettiruvchi hisobvaraqlarni yuritish funksiyalarini birlashtirish;
- u) Jamiyatning aynan bir xodimi tomonidan Jamiyat kontragentlari va kompaniyaning o‘z moliyaviy va xo‘jalik faoliyatini aks ettiruvchi hisobvaraqlarni va Jamiyat kontragentlarining operatsiyalarini aks ettiruvchi hisobvaraqlarni yuritish funksiyalarini birlashtirish;
- v) Jamiyatning aynan bir xodimi tomonidan kontragent nomidan ham, kompaniya hisobidan ham bitimlar tuzish;
- x) Jamiyat va uning kontragentlari manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish tamoyiliga rioya qilmaslik, shaxsiy maqsadlarda xizmat mavqeini suiiste’mol qilish;
- y) ishbilarmonlik aloqalari normalariga va kasbiy etika tamoyillariga rioya qilmaslik;
- z) bitimlar tuzishda Jamiyatning ichki limitlariga rioya qilmaslik;
- sh) o‘z tijorat faoliyatini yuritish;
- ch) shaxsiy manfaatlar tufayli Jamiyat manfaatlariga zarar yetkazadigan boshqa kompaniyalarga biznes imkoniyatlarini taqdim etish.

**14. *Jamiyat* (uning boshqaruv organlari) bilan *Jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlari o‘rtasida* quyidagilar natijasida **manfaatlar to‘qnashuvi** yuzaga kelishi mumkin:**

- a) Jamiyat tomonidan qonun hujjatlari va Jamiyatning ichki hujjatlari talablarini buzish;
- b) ishbilarmonlik aloqalari normalariga va kasbiy etika tamoyillariga rioya qilmaslik;
- d) shaxsiy hamda oila a’zolari tomonidan tijorat faoliyatini olib borish;

- e) Jamiyat bilan ishbilarmonlik aloqalarini o‘rnatgan boshqa kompaniyada moliyaviy manfaatlarning mavjudligi;
- f) boshqa tashkilotda rahbar, mansabdor shaxs sifatidagi o‘rindoshlik ishi yoki uning boshqaruv organlarida ishtirok etish;
- g) shaxsiy manfaatlar tufayli Jamiyat manfaatlari zarar yetkazadigan boshqa tashkilotlarga biznes imkoniyatlarini taqdim etish.

## **VI. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish**

**15. Har qanday manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun boshqaruv organlari, nazorat organlari, mansabdor shaxslar va kompaniya xodimlari quyidagilarga majburdirlar:**

- a) qonun hujjatlari, normativ hujjatlar, Jamiyat Ustavi va ichki hujjatlari talablariga rioya qilish;
- b) nizoli vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar va qarorlar qabul qilishdan bosh tortish;
- c) Jamiyat samarali boshqarilishini ta’minlash;
- d) noqonuniy faoliyatni amalga oshirishda, shu jumladan jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirishda (undirishda) va terrorizmni moliyalashtirishda Jamiyatning ishtirok etish imkoniyatini istisno qilish;
- e) tovarlarni ishlab chiqarish va ishlarni (xizmatlarni) bajarishda mumkin bo‘lgan eng yuqori samaradorlikni ta’minlash;
- f) qonun hujjatlariga muvofiq, har chorakda Jamiyatning tegishli boshqaruv organiga hisobot berish;
- g) Jamiyatning Ustavi va ichki hujjatlariga muvofiq ichki va tashqi nazoratni amalga oshirish;
- h) Jamiyat aksiyadorlarining Kuzatuv kengashi yoki Umumiyligiga ko‘rib chiqish uchun summalari qonun hujjatlarida va Jamiyat Ustavida belgilangan miqdordan ortiq bo‘lgan yirik bitimlar, alohida bitimlar yoki bir qator o‘zaro bog‘liq bitimlarni taqdim etish;
- i) nazorat organlari tomonidan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish shartlarini o‘rganishni amalga oshirish;
- j) nazorat kengashi tomonidan qonun hujjatlari talablariga muvofiq bitimlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorlar ma’qullangan taqdirda, mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash uchun mustaqil baholovchini jalgan etish;
- k) affillangan shaxslar to‘g‘risidagi axborotni hisobga olinishini ta’minlash;
- l) quyidagilar:

  - affillangan shaxslar;
  - kompaniya aktsiyadorlari va ularning affillangan shaxslari;
  - insayderlar bilan bitimlar tuzish tartibini ishlab chiqish va ularga rioya etilishini ta’minlash.

- m) Jamiyatning vakolatli organlari tomonidan oldindan tasdiqlanmasdan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzmaslik;
- n) Jamiyat Kuzatuv kengashining ruxsatsiz boshqa yuridik shaxslarning boshqaruv va nazorat organlarida lavozimlarni egallamaslik;

q) Jamiyatning axborot siyosati to‘g‘risidagi Nizom talablariga, amaldagi qonunchilik va qo‘sishma ma’lumotlarga muvofiq, Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish;

r) aksiyadorlar va kontragentlar, boshqaruv va nazorat organlari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga, shu jumladan reklama maqsadlarida taqdim etiladigan moliyaviy hisobot va e’lon qilingan boshqa ma’lumotlarning ishonchlilagini ta’minalash;

s) Jamiyatda mavjud bo‘lgan maxfiy ma’lumotlardan, bunday ma’lumotlarga kirish ruxsati bo‘lgan shaxslar tomonidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishning oldini olish choralarini ishlab chiqish va takomillashtirish;

t) ommaviy axborot vositalarida va boshqa manbalarda Jamiyat to‘g‘risidagi salbiy ma’lumotlarning ishonchliligi va obyektivligini o‘z vaqtida ko‘rib chiqish. Paydo bo‘lgan salbiy yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarning har bir faktiga o‘z vaqtida javob berish;

u) o‘rta va uzoq muddatli davrda Jamiyat daromadlarida barqarorlikka erishishni ta’minalash;

x) Jamiyatning ichki nazorati tizimidagi kamchiliklarni aniqlashda ishtirok etish.

sh) boshqaruv organlari a’zolariga to‘lanadigan haqning Jamiyatning moliyaviy ahvoli, shuningdek, Jamiyat faoliyatining erishilgan natijalari rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga qanchalik mos kelishini ta’minalash;

ch) korporativ va kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish.

16. Jamiyat **aksiyadorlari**, shuningdek **Jamiyat** (uning boshqaruv organlari, mansabdor shaxslar, Jamiyat xodimlari) va **uning aksiyadori (aksiyadorlari)**, boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslar, korxona xodimlari o‘rtasida korporativ manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida, Jamiyat **qo‘sishma ravishda** quyidagilarga majburdir:

a) qonun, normativ hujjatlar, Jamiyat Ustavi va ichki hujjatlarida belgilangan majoritar va minoritar aksiyadorlarning huquqlariga rioya qilish;

b) aksiyadorlarning qonuniy huquqlarini ta’minalash masalalarida Jamiyatning aniq va asosli pozitsiyasini aksiyadorlarga o‘z vaqtida yetkazilishini ta’minalash;

d) e’lon qilingan va hisoblangan dividendlarni o‘z vaqtida to‘lash;

e) aksiyadorlarga nizo predmeti bo‘lishi mumkin bo‘lgan masalalar bo‘yicha to‘liq ma’lumotlarni taqdim etish;

f) raqobatchi xo‘jalik jamiyatining aksiyalarini (ulushlarini) sotib olishda Jamiyat boshqaruvi organlari a’zolarining manfaati, shuningdek bunday Jamiyatlarning boshqaruv organlarida ishtirok etishini belgilangan bitimlarni aniqlash;

g) qabul qilingan boshqaruv qarorlarining xolisligi, puxta o‘ylanganligi va mustaqilligini ta’minalash uchun Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a’zolar tayinlanishiga intilish.

17. **Jamiyat** (boshqaruv va nazorat organlari, Jamiyatning mansabdor shaxslari, xodimlari) va **Jamiyatning kontragentlari** o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida, Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslar, xodimlari qo‘sishma ravishda:

a) kontragentlar tomonidan Jamiyatga ishonib topshirilgan pul mablag‘lari va boshqa boyliklarning saqlanishini ta’minalash;

b) Jamiyat to‘g‘risida belgilangan tartibda axborot berilishini ta’minalash;

v) maxfiy va boshqa muhim ma'lumotlardan foydalanish tartibiga qat'iy riosa etilishini ta'minlash;

g) mahsulotni (xizmatni) sotish va kontragentdan shartnomada o'zaro kelishilgan asosda belgilangan miqdorda yoki ma'lumotlar to'liq oshkor qilingan tariflar bo'yicha haq undirish;

d) Jamiyat kontragentlarining manfaatlariga javob bermaydigan bitimlarga yo'l qo'ymaslik;

y) o'z mijozlari uchun tovarlarni (xizmatlarni) professional, ehtiyyotkorlik bilan va vijdonan sotish, shuningdek, hozirgi bozor konyunkturasidan kelib chiqqan holda, moliyaviy samaradorlik nuqtai nazaridan mijozlarning topshiriqlarini bajarish;

j) Mijoz tomonidan aniq xatolik (shu jumladan mijoz tomonidan imzolangan ariza, bayonot yoki boshqa hujjatda xatolik) yuzaga kelgan taqdirda, xodimlarni vaziyatdan shaxsiy maqsadlarda ataylab foydalanishini istisno qilish. Mijozning buyrug'iда bunday xatolik mavjud bo'lsa, Jamiyat xodimi noto'g'ri buyruqning bajarilishini oldini olish uchun oqilona harakatlarni amalga oshirishi, va bu haqda Mijozni xabardor qilishi kerak;

z) mijozga berilgan tavsiyalar ushbu masala bo'yicha mavjud ma'lumotlarni vijdonan tahlil qilishga asoslanganligini ta'minlash;

i) Jamiyatda qog'oz, magnit va boshqa turdag'i tashuvchilarda joylashgan maxfiy deb tasniflangan ma'lumotlarni (tijorat siri, insayder ma'lumotlari, mulkiy ma'lumotlar va boshqalar) Jamiyat faoliyati jarayonida yaratilgan, olingan va to'plangan ma'lumotlarni jamiyat boshqaruv organlari yoki vakolatlari mansabdar shaxslarning roziligidisiz sotish, uzatish, nusxalash, ko'paytirish, almashish va boshqa tarqatish va ko'paytirish obyektiga aylanmasligi uchun saqlash tizimini takomillashtirish.

1.8. **Jamiyat va mansabdar shaxslar va xodimlar** o'rtasida o'z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida mansabdar shaxslar va xodimlar **qo'shimcha** ravishda quyidagilarni bajarishi lozim:

- ishbilarmonlik muloqoti normalari va kasbiy etika tamoyillariga riosa qilish;

- belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

- jamiyat bilan raqobatlashayotgan tashkilotning ulushini (aksiyalarini) sotib olish niyati to'g'risida Jamiyatning yuqori mansabdar shaxsini yoki boshqaruv va nazorat organlarini xabardor qilish;

- yuqori mansabdar shaxsni to'qnashuvli vaziyatning yuzaga kelishiga yordam beradigan holatlar paydo bo'lganligi to'g'risida darhol xabardor qilish;

- mansabdar shaxs yoki uning oila a'zolari moliyaviy manfaatdor bo'lgan va Jamiyat tijorat faoliyatini amalga oshirayotgan yoki amalga oshirish niyatida bo'lgan tashkilotlar to'g'risida yuqori mansabdar shaxsni yozma ravishda xabardor qilish;

- mansabdar shaxs yoki uning oila a'zolari moliyaviy manfaatdor yoki affillangan shaxslar bo'lgan Jamiyat va tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarga bevosita daxldor bo'lgan har qanday faoliyatdan voz kechish;

- manfaati Jamiyat manfaatlariga zid kelishi mumkin bo'lgan boshqa tashkilotning boshqaruv organlarida ishtiroy etish uchun Jamiyat Ijroiya organi rahbaridan oldindan ruxsat olish;

- boshqa tashkilotda to'liq bo'limgan ish kunida ishlash niyati haqida oldindan yuqori lavozimdagи mansabdar shaxsga xabar berish va taklif etilayotgan ish Jamiyat manfaatlariga zid emasligini tasdiqlovchi ma'lumotlarni taqdim etish.

## **VII. Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish**

19. Jamiyat darajasida manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish - nizolashayotgan tomonlar o‘rtasidagi nizolarning oldini olishga yoki ularni hal qilishga qaratilgan sudgacha bo‘lgan tartiblarni amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

Jamiyatning manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishdagi asosiy vazifasi qonuniy va asosli bo‘lib, Jamiyat manfaatlariga javob beradigan yechim topishdan iborat.

Manfaatlar to‘qnashuvini sudgacha hal qilishning afzallikkleri:

- a) sheriklik munosabatlarini saqlab qolish;
- b) xarajatlarni qisqartirish;
- v) nizoni tez hal etish.

20. Jamiyatda yuzaga keladigan har qanday turdag'i manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish uchun Jamiyat boshqaruvi organlari quyidagilarga majburdirlar:

- a) paydo bo‘layotgan manfaatlar to‘qnashuvlarini va ularning sabablarini imkon qadar tezroq erta bosqichlarda aniqlash;
- b) Jamiyat boshqaruvi organlarining vakolatlari va javobgarligini aniq belgilash;
- v) Jamiyatning vakolatli shaxsini belgilash yoki zarur bo‘lganda nizolarni hal qilish komissiyasini tuzish;
- g) to‘qnashuvning mohiyati bo‘yicha Jamiyatning pozitsiyasini imkon qadar tezroq aniqlash, tegishli qaror qabul qilish va uni nizoning boshqa tomoniga yetkazish;
- d) nizoning boshqa tomoniga Jamiyatning nizodagi pozitsiyasini aniq asoslab beruvchi to‘liq va bat afsil javob yuborish va qonun hujjatlari, normativ hujjatlari, Ustav va kompaniyaning ichki hujjatlari asosida nizo ishtirokchisining iltimosi yoki talabini qondirishdan bosh tortish to‘g‘risidagi xabarni asoslash;
- y) nizoni hal qilishda ishtirok etayotgan vakolatli shaxs yoki Komissiya a’zolari nizo ularning manfaatlariga yoki oila a’zolarining manfaatlariga ta’sir qilgani yoki ta’sir qilishi mumkinligi to‘g‘risida darhol xabar berishini ta’minlash;
- j) manfaatlariga nizo daxl qiladigan yoki daxl qilishi mumkin bo‘lgan shaxslar ushbu nizo bo‘yicha qaror qabul qilishda ishtirok etmasligini ta’minlash.

### **a) Jamiyat aksiyadorlari o‘rtasidagi, shuningdek Jamiyat va uning aksiyadorlari o‘rtasidagi korporativ nizolarni hal qilish**

21. Korporativ nizo Jamiyat boshqaruvi organlari a’zolarining shaxsiy manfaatları (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) ularning Jamiyatni boshqarish bo‘yicha majburiyatlarini to‘g‘ri bajarishiga, boshqaruv organlari a’zolarining shaxsiy manfaatları va huquqlari ta’sir qiladigan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan va ular o‘rtasida to‘qnashuv yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarda paydo bo‘ladi yoki paydo bo‘lishi mumkin.

22. Korporativ manfaatlar to‘qnashuv yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarning taxminiy ro‘yxati:

- a) yirik va kichik aksiyadorlar o‘rtasidagi to‘qnashuv - Jamiyat daromadidan foydalanish bo‘yicha, agar minoritar aksiyadorlar faqat dividendlar ko‘rinishida daromad olsalar va asosiy

aksiyadorlar Jamiyatning moliyaviy oqimlarini boshqarishda ishtirok etish orqali daromad olishlari mumkin bo‘lsa;

b) yirik va kichik aksiyadorlar o‘rtasidagi to‘qnashuv - minoritar aksiyadorlar dividendlar olishni afzal ko‘rganda va majoritar aksiyadorlar kompaniyaning aylanma mablag‘larini saqlab qolishdan va foydani kapitallashuvga yo‘naltirishdan manfaatdor bo‘lganda;

v) aksiyadorlar tomonidan ularning qonuniy huquqlari va manfaatlariga tajovuz sifatida qabul qilingan korporativ qonunchilik normalari va tartib-qoidalarini qasddan buzish bilan bog‘liq nizolar - Jamiyat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli tarzda oshkor qilmasa, aksiyadorlarni bo‘lajak umumiylig‘ilishlar to‘g‘risida xabardor qilmasa, aksiyadorlar va aksiyadolarning boshqa huquqlarini buzsa;

g) Jamiyat aksiyadolarning huquqlarini qasddan buzganda, aksiyadolarning so‘rovlari bo‘yicha Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishdan bosh tortsa, olingen takliflarda kichik kamchiliklar tufayli Jamiyatning Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi a’zoligiga nomzodlarni yig‘ilish kun tartibiga kiritishni rad etsa va h.k.;

d) Jamiyat va aksiyadorlar o‘rtasidagi to‘qnashuv - Jamiyat ba’zi aksiyadorlarga boshqalardan ustunlik berganda, masalan, birinchi navbatda asosiy majoritar, keyin esa minoritar aksiyadorlarga dividendlar to‘laganda;

y) Jamiyatni boshqarish samaradorligi va Ijroiya organi harakatlarining halolligi bo‘yicha aksiyadorlar va rahbar va Ijroiya organi a’zolari (menejerlari) o‘rtasida to‘qnashuvlar;

j) Jamiyatning moliyaviy ahvoli va raqobatbardoshligini buzishga qaratilgan to‘qnashuvlar, masalan, Jamiyatni egallab olishga urinish yoki unga qarshi bankrotlik (raqobat) ishini qo‘zg‘atish;

z) Jamiyatni yoki uning asosiy aksiyadorlarini minoritar aksiyadolardan o‘z ulushlarini bozor qiymatidan yuqori narxda qaytarib olishga yoki mojaroni tugatish uchun tovon to‘lashga undashga qaratilgan to‘qnashuvlar (korporativ shantaj);

i) boshqa holatlar.

### **Korporativ nizolarni hisobga olish**

23. Korporativ nizolarni ko‘rib chiqish tartibini boshlash uchun asos bo‘lib korporativ manfaatlar to‘qnashuvi taraflari har qaysisining jamiyatga yozma ravishda yuborilgan murojaati (ariza, xat yoki talab) hisoblanadi.

Korporativ nizolarni hisobga olish Jamiyatning korporativ munosabatlar uchun mas’ul bo‘lgan alohida maxsus tarkibiy bo‘linmasiga (bo‘limiga) yuklatilgan. Hisobga olish Jamiyatning korporativ munosabatlar uchun mas’ul bo‘lgan alohida maxsus tarkibiy bo‘linmasida joylashgan maxsus Korporativ nizolar reyestrida saqlanadi.

### **Korporativ nizolarni hal qilish tartibi (reglamenti)**

24. Jamiyatning korporativ munosabatlarga mas’ul bo‘lgan alohida maxsus tarkibiy bo‘linmasi (bo‘limi) korporativ nizoga dastlabki baho beradi, masalaning mohiyati bo‘yicha zarur hujatlarni tayyorlaydi va ularni 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay ushbu korporativ nizoni ko‘rib chiqish vakolatiga kiritilgan Jamiyat organiga taqdim etadi.

25. Korporativ nizoni ko‘rib chiqish Ijroiya organiga topshirilgan taqdirda, Ijroiya organining rahbari yoki uning o‘rinbosari nizoni hal qilish tartibini belgilaydi va vakolatli shaxsni buyruq bilan tayinlaydi. Zarurat bo‘lsa, masalani kollegial ko‘rib chiqish uchun manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish komissiyasi tuziladi. Komissiya tarkibi korporativ nizoning xususiyatiga qarab belgilanadi.

26. Vakolatli shaxs (komissiya) manfaatlar toqnashuvini hal qilish uchun barcha choralarни ко‘ради. Agar manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishning iloji bo‘lmasa, vakolatli shaxs ushbu masalani ko‘rib chiqish uchun Ijroiya organi rahbariga kiritadi.

27. Agar manfaatlar to‘qnashuvini Ijroiya organi rahbari darajasida hal qilishning iloji bo‘lmasa, manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotni Jamiyat Kuzatuv kengashi raisiga yuboradi.

28. Kuzatuv kengashi raisi Ijroiya organi rahbaridan, shuningdek bevosita korporativ maslahatchidan kelib tushgan (agar mavjud bo‘lsa) korporativ nizolar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni manfaatlar to‘qnashuvi turidan kelib chiqib, tegishli Kuzatuv kengashi qo‘mitasiga yuboradi.

29. Mazkur ma’lumotlar Kuzatuv kengashining tegishli qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

30. Jamiyat taqdim etilgan ma’lumotlarni maxfiy ravishda ko‘rib chiqish va korporativ nizolarni hal qilish majburiyatini oladi.

31. Kelib tushgan ma’lumotlar Jamiyat uchun yuzaga keladigan xavf-xatarlarning jiddiyligini baholash va manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishning eng maqbul shaklini tanlash uchun Kuzatuv kengashining tegishli qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda diqqat bilan o‘rganilishi kerak.

32. O‘rganish natijasida Jamiyat aksiyador tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar korporativ manfaatlar to‘qnashuvi emas, degan xulosaga kelishi mumkin va bunda nizoni hal qilish uchun maxsus choralar va usullar talab etilmaydi.

#### **Korporativ nizolarni hal qilishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan choralari (usullari)**

33. Jamiyat, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risida xulosaga kelishi va hal qilish choralari to‘g‘risidagi bitimni imzolash, yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarlikni bartaraf etish orqali uni hal qilishning turli usullaridan foydalanishi mumkin, shu jumladan:

- a) aksiyadorga qonun talablariga va Jamiyatning axborot siyosati to‘g‘risidagi nizomga muvofiq taqdim etilishi kerak bo‘lgan, ammo unga berilmagan ma’lumotlarni taqdim etishi;
- b) qonun hujjatlarida va Jamiyat Ustavida belgilangan muddatlarda hisoblangan, lekin to‘lanmagan dividendlarni aksiyadorga to‘lashi;
- v) Jamiyat aksiyadorlarining manfaatlari to‘qnashuvini yuzaga keltiradigan Ijroiya organi va Kuzatuv kengashi a’zosining o‘z shaxsiy manfaatlaridan voz kechishi;
- g) Jamiyat bitimini haqiqiy emas, deb topilishi;
- d) Jamiyat bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlari buzilgan taqdirda, Ijroiya organi rahbarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

y) Jamiyat Ustavini qo‘pol ravishda buzgan va aksiyadorlarga zarar yetkazilgan taqdirda, Ijroiya organi rahbarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

j) boshqa chora-tadbirlar.

**34. Aksiyadorlar o‘rtasidagi korporativ nizolarni hal qilish uchun:**

a) Korporativ maslahatchi va Kuzatuv kengashining tegishli qo‘mitasi a’zolari aksiyadorlar o‘rtasidagi muzokaralarda ishtirok etishi, aksiyadorlarga korporativ nizolar bilan bog‘liq o‘z ixtiyorida bo‘lgan ma’lumotlar va hujjatlarni taqdim etishi, qonunchilik normalari, Jamiat Ustavi va ichki hujjatlarini tushuntirishi mumkin;

b) Kuzatuv kengashining mustaqil a’zosi Jamiyat aksiyadorlari o‘rtasida yuzaga kelgan nizoni hal qilishda vositachi sifatida ishtirok etishi mumkin;

v) Korporativ maslahatchi, Kuzatuv kengashining tegishli qo‘mitasi a’zolari aksiyadorlarga maslahat va tavsiyalar beradi, nizolarni hal etish bo‘yicha aksiyadorlar tomonidan imzolanishi uchun Jamiat nomidan o‘z vakolatlari doirasida hujjatlar (bitimlar va boshqalar) loyihibarini tayyorlaydi, nizoni hal qilishga yordam beradigan darajada aksiyadorlar oldidagi majburiyatlarni qabul qiladi;

g) Jamiat boshqaruv organlari o‘z vakolatlariga muvofiq korporativ nizoni hal qilish to‘g‘risidagi qarorning bajarilishini tashkil etishlari va nizolashayotgan tomon bilan Jamiat nomidan imzolangan shartnomalarning bajarilishiga ko‘maklashishlari shart. Agar nizolashayotgan tomon va Jamiat o‘rtasida ularning majburiyatlarining mohiyati bo‘yicha nizo bo‘lmasa, lekin ularni bajarish tartibi, usuli, muddati va boshqa shartlari bo‘yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan bo‘lsa, kompaniya nizo tomonni taklif qilishi, yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish va Jamiyat aksiyadorning talabini qondirishga tayyor bo‘lgan shartlarni bayon qilishi shart;

d) agar Jamiat aksiyadorning talabini qondirishga roziligi ushbu tomonning qonun hujjatlarida, Jamiat Ustavida yoki Jamiyatning boshqa ichki hujjatlarida nazarda tutadigan har qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishi zarurligini nazarda tutsa, Jamiyatning javobida bunday shartlar har tomonlama ko‘rsatiladi, shuningdek, ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar (masalan, aksiyador tomonidan so‘ralgan hujjatlarning nusxalarini yoki Jamiyatning bank rekvizitlarini tayyorlash uchun yig‘im miqdori va boshqalar) keltiriladi;

**35. Korporativ nizolarni hal qilish to‘g‘risidagi bitim quyidagi hollarda qabul qilingan, deb hisoblanadi:**

- a) yozma ravishda rasmiylashtirilgan;
- b) korporativ nizo tomonlari imzolagan bo‘lsa.

**36. Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish usullarining keltirilgan ro‘yxati mukammal hisoblanmaydi. Har bir muayyan holatda, Jamiat va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilgan xodim o‘rtasidagi kelishuvga binoan, uni hal qilishning boshqa shakllari topilishi mumkin.**

37. Jamiyatning korporativ maslahatchisi tez-tez uchrab turadigan masalalar va aksiyadorlarning talablarini tahlil qiladi, ushbu masalalar bo'yicha barcha aksiyadorlarga qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish zarurligi to'g'risida qarorlar qabul qiladi yoki ushbu turdag'i murojaatlarning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish bo'yicha boshqa choralar ko'rish maqsadida Jamiyat Ijroiya organi rahbariga ichki tartib va ko'rsatmalarni o'zgartirish to'g'risida taklif kiritadi;

38. Agar nizoni ko'rib chiqish natijasida Jamiyatning amaldagi ichki hujjatlarini ishlab chiqish yoki ularga o'zgartirishlar kiritish zarurati tug'ilsa, Kuzatuv kengashi yoki Ijroiya organi hujjatni ishlab chiqish yoki tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi.

39. Korporativ nizolarni hal qilish natijalari bo'yicha barcha materiallar (xatlar, yozishmalar (shu jumladan elektron pochta orqali), bayonnomalar, stenogrammalar, ishonchnomalar, iltimoslar, murojaatlar, arizalar, bildirishnomalar va boshqalar) korporativ maslahatchi tomonidan saqlash uchun kompaniya arxiviga topshiriladi.

### **Korporativ nizolarning oshkor qilinishi va hal qilinishi munosabati bilan Jamiyat boshqaruvi organlari a'zolari, mansabdar shaxslari va xodimlarining majburiyatları**

40. Korporativ nizolarning oldini olish va ularni hal qilish maqsadida Jamiyat boshqaruvi organlari a'zolari quyidagilarga majburdirlar:

- a) Jamiyat va uning aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab harakat qilish;
- b) Jamiyatni boshqarish jarayonida qarorlar qabul qilishda o'z shaxsiy manfaatlarini, qarindoshlari, do'stlari va boshqa uchinchi shaxslar manfaatlarini inobatga olmasdan Jamiyat manfaatlariga amal qilishi;
- v) o'zining affilangan shaxslari haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish;
- g) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan bitimlarga tegishliligi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qiladi;
- d) Qonun va Jamiyatning yirik bitimlarini amalga oshirish tartibi talablariga muvofiq yirik bitimlarni amalga oshirish to'g'risida qarorlar qabul qilish;
- y) Qonun va Jamiyat tomonidan affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish tartibi talablariga muvofiq affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risida qarorlar qabul qilish;
- j) Kompaniyaning maxfiy ma'lumotlarini oshkor qilmaslik.
- z) manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar va holatlardan (iloji boricha) qochish;
- i) yuzaga kelgan (haqiqiy) yoki yashirin manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish;
- k) yuzaga kelgan har qanday manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda yordam berish.

### **b) Jamiyat va Jamiyat kontragentlari o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini hal qilish**

41. Jamiyat va uning kontragentlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi xodimning shaxsiy manfaatlari (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) uning xizmat (mehnat) vazifalarini to'g'ri bajarishiga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan va qarama-qarshilik yuzaga kelgan holatlarda paydo bo'lishi yoki yuzaga kelishi yohud xodimning shaxsiy manfaatlari bilan Jamiyatning huquq va qonuniy manfaatlari o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lib, bu Jamiyatning huquq va qonuniy manfaatlariga, mulkiy va (yoki) ishchanlik obro'siga zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin.

42. Xodimning shaxsiy manfaatlari - o‘zining lavozim vazifalarini bajarishda xodimning o‘zi, yaqin qarindoshlari yoki uchinchi shaxslar uchun pul, qimmatbaho buyumlar, boshqa mulk yoki mulkiy xususiyatdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlar shaklida daromad olish imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lgan manfaatlari.

43. Manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish uchun Jamiyat xodimlari quyidagi usullardan foydalanishlari mumkin:

- a) ishga qabul qilishda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish;
- b) yangi lavozimga tayinlashda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish;
- v) manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzaga kelganda ma’lumotlarni bir martalik oshkor qilish;
- g) biznesning axloqiy me’yorlariga muvofiqligi bo‘yicha yillik sertifikatlash jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlarni oshkor qilish.

44. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish yozma shaklda xodimning bevosita rahbariga, ichki audit xizmati rahbariga, xodimlarni boshqarish bo‘yicha tarkibiy bo‘linma rahbariga (kadrlar xizmati) va ijro etuvchi organ rahbariga hisobot taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

### **Kontragentlar va Jamiyat xodimlarining murojaatlarini hisobga olish.**

45. Jamiyat xodimining yozma shaklda yuborilgan manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganligi to‘g‘risidagi xabari yoki Jamiyat kontragentining murojaati (ariza, xat yoki talabnama) manfaatlar to‘qnashuvini ko‘rib chiqish tartibini boshlash uchun asos hisoblanadi.

46. Yuzaga kelayotgan (mavjud) manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida ma’lumot olish uchun xodimning bevosita rahbari, Ichki audit xizmati boshlig‘i, Xodimlarni boshqarish bo‘yicha tarkibiy bo‘linma (kadrlar xizmati) rahbari va Ijroiya boshlig‘i javobgardir.

47. Hisobga olish Ijroiya organi rahbarining qabulxonasida joylashgan Jamiyat va kontragentlar o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvining maxsus Jurnalida ro‘yxatga olish yo‘li bilan yuritiladi.

48. Jamiyat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, Jamiyat va uning kontragentlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarning taxminiy ro‘yxati:

- a) bir mijozning boshqasidan ustunligi (mahsulotni yetkazib berish muddati bo‘yicha) (tovarlar), ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish; narx siyosati bo‘yicha va boshqalar);
- b) agar Jamiyat xodimining mehnatiga haq to‘lash tamoyillari Jamiyat mijozining manfaatlarini buzishga olib kelishi mumkin bo‘lsa, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin;
- d) kontragent bilan ishslashda Jamiyatga ma’lum bo‘lgan maxfiy ma’lumotlarning Jamiyat tomonidan oshkor etilishi;
- e) Jamiyat xodimi mijozga xizmat ko‘rsatishda o‘zini noto‘g‘ri tutishi, moddiy boyliklarni olish yoki talab qilish yoki mijoz tomonidan bepul xizmatlar ko‘rsatilishi;
- f) Agar Jamiyat xodimi Jamiyatning kontragenti bilan raqobatlashadigan tijorat tashkilotining sherik egasi bo‘lsa, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin;

- e) Auditorni tanlashda Jamiyat boshqaruvi organlari a'zolari bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan auditorlik tashkilotiga ustunlik berilishi;
- f) Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni amalga oshirish uchun mustaqil tashkilotni tanlashda Jamiyat boshqaruv organlari a'zolari bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan tashkilotga ustunlik berilishi;
- h) Jamiyat va xodimlar o'rtasidagi ziddiyat - xodim o'z xizmat mavqeidan foydalanib, buning natijasida mijoz Jamiyat bilan emas, balki Jamiyat xodimi bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan tashkilot bilan shartnomaga tuzishi;
- i) Jamiyat va xodimlar o'rtasidagi ziddiyat – xodim Jamiyatning maxfiy ma'lumotlaridan shaxsiy maqsadlarda foydalanishi;
- k) Jamiyat va xodimlar o'rtasidagi ziddiyat - xodim maxfiy ma'lumotlarni uni olish huquqiga ega bo'lmagan boshqa xodimlarga berishi;
- l) Jamiyat xodimlari o'rtasidagi ziddiyat - alohida xodimlarga o'z vazifalarini bajarishga ruxsat berilishi;
- m) Jamiyat xodimlari o'rtasidagi ziddiyat - bir xodim boshqa xodim tomonidan xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilishi;
- n) boshqa holatlari.

#### **Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish tartibi (reglamenti).**

49. Kontragentdan yoki boshqa manbalardan nizoli vaziyat to'g'risida ma'lumot olgan Jamiyat xodimi bu haqda darhol yuqori mansabdar shaxsga xabar berishi shart. Agar Jamiyatning tarkibiy bo'linmasi darajasida nizoni hal qilishning imkonini bo'lmasa, tarkibiy bo'linma rahbari Ijroiya organi rahbariga yoki uning o'rribosariiga 1 (bir) ish kuni ichida nizo, uning kelib chiqish sabablari hamda ko'rilgan choralar to'g'risida ma'lumot berishga majburdir. Ijroiya organi rahbari yoki uning o'rribosari nizoni hal qilish tartibini belgilaydi va vakolatli shaxsni tayinlaydi. Zarur bo'lganda, masalani kollegial ko'rib chiqish uchun manfaatlar to'qnashuvini hal qilish uchun komissiya tuziladi.

50. Vakolatli shaxs (komissiya) manfaatlar to'qnashuvini hal qilish uchun barcha choralarни ko'radi. Agar manfaatlar to'qnashuvini hal qilishning imkonini bo'lmasa, vakolatli shaxs ushbu masalani ko'rib chiqish uchun Ijroiya organi rahbariga kiritadi.

51. Ijroiya organi rahbari darajasida manfaatlar to'qnashuvini hal etishning imkonini bo'lmagan taqdirda, manfaatlar to'qnashuvini to'g'risidagi ma'lumotni Jamiyat Kuzatuv kengashi raisiga yuboradi.

52. Mazkur ma'lumotlar nizolarni hal etish bo'yicha Kuzatuv kengashining qo'mitasi (ishchi guruhi) (Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi, nizolarni hal etish uchun mas'ul Kuzatuv kengashi a'zosi) tomonidan ko'rib chiqiladi.

53. Jamiyat taqdim etilgan ma'lumotlarni maxfiy ravishda ko'rib chiqish va manfaatlar to'qnashuvini hal qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

54. Jamiyat uchun yuzaga keladigan xavf-xatarlarning jiddiyligini baholash va manfaatlar to'qnashuvini hal qilishning eng maqbul shaklini tanlash maqsadida olingan ma'lumotlar vakolatli shaxs (Komissiya) tomonidan sinchkovlik bilan tekshirilishi kerak.

55. O‘rganish natijasida Jamiyat xodim tomonidan ma’lumot berilgan vaziyat manfaatlar to‘qnashuvi emasligi va uni hal qilish uchun maxsus choralar yoki usullar talab qilinmaydi, degan xulosaga kelishi mumkin.

### **Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan choralar (usullar).**

56. Jamiyat shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi mavjud, degan xulosaga kelishi va uni hal qilishning turli usullaridan foydalanishi mumkin, jumladan:

- a) xodimning shaxsiy manfaatlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan aniq ma’lumotlarga kirishiga ruxsatni cheklash;
- b) Jamiyat xodimining o‘zi ixtiyoriy ravishda rad etishi yoki u manfaatlar to‘qnashuvi ta’sirida bo‘lgan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishdan (doimiy yoki vaqtinchalik) chetlashtirish;
- c) xodimning funksional majburiyatlarini ko‘rib chiqish va o‘zgartirish;
- d) agar xodimning shaxsiy manfaatlari uning funksional majburiyatlariga zid bo‘lsa, uni vaqtincha lavozimidan chetlashtirish;
- e) xodimni manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq bo‘lmagan funksional vazifalar bajariladigan lavozimga o‘tkazish;
- f) xodim tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi uchun asos bo‘lgan mulkini ishonchli boshqaruvga o‘tkazish;
- g) xodimning Jamiyat manfaatlariga zid keluvchi shaxsiy manfaatlaridan voz kechishi;
- h) xodimning tashabbusi bilan xodimni Jamiyatdagi lavozimidan ozod etish;
- i) xodimni ish beruvchining tashabbusi bilan intizomiy qoidabuzarlik sodir etganligi uchun, ya’ni xodim, unga yuklangan mehnat majburiyatlarini uning aybi bilan bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun lavozimidan ozod etish.

57. Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish usullarining yuqoridaagi ro‘yxati to‘liq emas. Har bir muayyan holatda, Jamiyat va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilgan xodim o‘rtasidagi kelishuvga binoan, uni hal qilishning boshqa shakllari topilishi mumkin.

58. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishda, mavjud vaziyatlarni hisobga olgan holda, “eng yengil” hal qilish chorasi tanlanadi. Qattiqroq choralar faqat haqiqiy ehtiyoj mavjud bo‘lganda yoki “yengil” choralar yetarli darajada samara bermaganida qo‘llanilishi kerak.

59. Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishning aniq usulini tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilishda xodimning shaxsiy manfaatlarining ahamiyatini va ushbu shaxsiy manfaatning Jamiyat manfaatlarga zarar yetkazadigan holda amalga oshirilishi ehtimolini hisobga olish muhimdir.

### **Jamiyat xodimlarining manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish va tartibga solish bilan bog‘liq javobgarliklari**

60. Manfaatlar to‘qnashuvining oshkor qilinishi va hal etilishi munosabati bilan Jamiyat xodimlari:

- a) Ishbilarmonlik masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilishda va o‘z mehnat majburiyatlarini bajarishda o‘zining shaxsiy manfaatlarini, qarindoshlari, do‘srtlari va boshqa uchinchi shaxslarning manfaatlarini hisobga olmagan holda, Jamiyat manfaatlariga amal qilish;
- b) manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar va vaziyatlardan (imkon qadar) qochish;
- d) har qanday yuzaga kelgan (haqiqiy) yoki mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini oshkor

qilish;

e) yuzaga kelgan har qanday manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishda yordam berishga majbur.

## I. Ma’lumotni oshkor qilish

61. Jamiyat mazkur Nizomni, shuningdek unga kiritilgan barcha o‘zgartirish va qo‘srimchalarni tegishli qaror qabul qilingan aksiyadorlar Umumiylig yig‘ilishining bayoni imzolanganidan keyin 5 (besh) ish kuni ichida korporativ veb-saytga joylashtiradi.

## IX. Yakuniy qoidalar.

62. Mazkur Nizom aksiyadorlar Umumiylig yig‘ilishining qarori bilan tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi.

aksiyadorlar Umumiylig yig‘ilishining mazkur Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori aksiyadorlar umumiylig yig‘ilishida ishtirot etayotgan aksiyadorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

63. Qonun hujjatlari, Jamiat Ustavi, Jamiatning ichki hujjatlariga kiritilgan o‘zgartish va/yoki qo‘srimchalar va boshqa holatlar munosabati bilan mazkur Nizomga o‘zgartirish va/yoki qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.

Mazkur Nizomga kiritilgan o‘zgartirishlar va/yoki qo‘srimchalar aksiyadorlar Umumiylig yig‘ilishining qarori bilan tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi.

Mazkur Nizomga kiritilgan o‘zgartirish va/yoki qo‘srimchalarni tasdiqlash bo‘yicha aksiyadorlar Umumiylig yig‘ilishining qarori aksiyadorlarning Umumiylig yig‘ilishida ishtirot etgan aksiyadorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

64. Agar ushbu Nizomning ayrim moddalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiat Ustaviga zid bo‘lsa, ushbu moddalar o‘z kuchini yo‘qotadi va ushbu moddalar bilan tartibga solinadigan masalalar bo‘yicha mazkur Nizomga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgunga qadar, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiat Ustavi normalariga amal qilish lozim.